

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY**  
**TADQIQOT INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida**  
**UDK 372.52:741**

**SABIROVA DONO TAIRDJANOVNA**

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAVODXONLIK**  
**ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi va tarixi

Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini  
olish uchun yozilgan dissertatsiya

**A V T O R E F E R A T I**

Toshkent – 2007

Tadqiqot T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Ilmiy rahbar pedagogika fanlari nomzodi,  
katta ilmiy xodim A.P.Sulaymonov

Rasmiy opponentlar pedagogika fanlari doktori,  
professor S.S.Bulatov

pedagogika fanlari nomzodi  
O.Jamoliddinova

Etakchi tashkilot O‘zbekiston Davlat jahon  
tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2007 yil 15 fevral kuni soat 14<sup>00</sup>da T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha D.113.20.01 – Ixtisoslashgan kengash yig‘ilishida o‘tkaziladi.

Manzil: 700027, Toshkent shahri, O‘zbekiston shoh ko‘chasi, 98-uy.  
E – mail: uzpfiti 2005@ mail.ru

Dissertatsiya bilan Respublika ilmiy - pedagogika kutubxonasida tanishish mumkin (700003, Toshkent shahri, M.G‘afurov ko‘chasi, 174-uy).

Avtoreferat 2007 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_da tarqatildi.

Ixtisoslashgan kengash ilmiy kotibi,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

E.O.Turdiqulov

## DISSERTATSIYANING UMUMIY TAVSIFI

**Tadqiqot mavzusining dolzarbliji.** O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida maktabgacha ta’lim uzlusiz ta’limning birinchi bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilib, uning 11-moddasida maktabgacha ta’lim bolalarni jismoniy, ma’naviy, aqliy, axloqiy, xullas, har jihatdan ta’limning keyingi turida, ya’ni maktabda o‘qishga tayyorlashi lozimligi ta’kidlanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash; maktabgacha ta’limning samarali pedagogik-psixologik uslublarini izlash va joriy etish; bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy-psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minalash; zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar, o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish; maktabgacha yoshdagи bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlarasi asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish; maktabgacha ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, mazkur sohaning barcha masalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish; maktabgacha ta’lim va sog‘lomlashtirish muassasalarini tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi dolzarb tashkiliy-pedagogik muammolarni hal etish shu yo‘nalishda maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Zero, O‘zbekistonning kelajak taraqqiyoti, salohiyati ma’lum ma’noda bolalarga maktabgacha ta’lim yoshidanoq maqsadli ravishda ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirish va maktabga tayyorlashga bog‘liqidir.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, «maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tayyorgarlik esa bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari, ko‘rish-motor va qo‘l mushaklarining o‘zaro muvofiq tarzda rivojlanishi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorgarlikda esa bolaning oilada yoki biror bir ta’lim-tarbiya maskanida tarbiyalanganligiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Maxsus tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichlari bu - faoliyatning tushunib etilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurlarning rivojlanganligi hisoblanadi. Aqliy tayyorgarlikda maktabgacha yoshning ilk davridan boshlab bolalarda sensor, mantiqiy tasavvurlarni rivojlantirish, qurish-yasash, rasm chizish, loydan narsalar yasash orqali ko‘nikma va malakalar shakllantirib boriladi.

«Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturida bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash uch yo‘nalishda (bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutqi va tafakkurini rivojlantirish, ma’nan rivojlantirish) mujassam mashg‘ulotlar orqali olib borilishi joriy etilgan bo‘lib, tasviriy faoliyat (rasm chizish, loy ishi, qurish-yasash, qirqib elimlash) mashg‘ulotlari bir qator xususiyatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining maqsadi - bolalarda atrofdagi narsa va hodisalarga estetik munosabat bildirish, go‘zallikka daxldor narsalarni yaratish (chizish, yasash)ning elementar asoslarini shakllantirishdan iborat. Zero, bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish orqali ular nafaqat boshlang‘ich ta’limning “Tasviriy san’at” ta’limiga tayyor bo‘lib boradilar, balki shu faoliyat vositasida o‘z xalqining turmush tarzi, mavjud badiiy an‘analarini ongli his eta boshlaydilar. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari estetik tarbiyaning dastlabki bosqichi sifatida bolalarni aqliy rivojlantirish va ularning badiiy didini tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish, tevarak-atrofdagi va tabiatdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, undan zavqlanish va unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni va nihoyat, tasviriy savodxonlik elementlarini to‘g‘ri shakllangan bo‘lishining pedagogik kafolatidir.

Demak, bu jarayon nafaqat badiiy-estetik tarbiya jihatidan, balki bolalarni har tomonlama rivojlanib borishlari uchun kompleks ta’sir etish vositasidir, ya’ni tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish jarayonida bolalarning narsa va bujomlar, hodisalar haqidagi tasavvurlari shakllanib boradi, muayyan darajada jismoniy rivojlanish ta’minalashdi. Shuning uchun ham bu holatni psixologik, pedagogik, metodik va fiziologik tomonidan taddiq etib borish, amaliyotni jamiyatni taraqqiyot bosqichi, ta’limiy va tarbiyaviy ehtiyojlari, talablari asosidagi xulosalar, ilmiy asoslangan

ishlanmalar bilan ta'minlab borish taqozo etiladi. Shu ma'noda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim pedagogikasining muhim masalasidir. Zero, hozirgi kunda respublikamizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tasviriy faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslangan mazmuni va metodikasi, modernizatsiyalashtirilgan dasturlar, takomillashtirilgan qo'llanmalar, tavsiyalar etarli darajada emas. Hozirgi kunga qadar respublikamizda maktabgacha ta'lim yosh davri bo'yicha tasviriy faoliyat muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlari qilinmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ta'kidlaydi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'naliшlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzuksiz ta'lim bosqichlarining nechog'lik samarali ishlashi ma'lum darajada maktabgacha ta'lim sifatiga bog'liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. Unga to'g'ri mazmun va yo'naliш berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Bolalarning dunyoqarashini shakllanishida san'atning o'miga alohida e'tibor qaratib buroq donishmand Aristotel tasvirlash, rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning har tomonlama rivojlanishiga turki bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Bu g'oyani moziyning ilg'or pedagoglari Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi, F.Frebel kabilar ham ilgari surganlar.

Umuman, estetik tarbiya – faqatgina soddallashtirilgan, biror bir bolalarga xos bo'lgan san'atni o'qitishdan iborat, deb tushunish xatodir.

Tegishli adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tasviriy faoliyatni o'rgatish amaliyoti dunyo miqyosida muayyan tajribalarga ega. Chunki mazkur muammoning ilmiy tadqiqi bo'yicha xorijlik olimlardan N.P.Sakulina, T.S.Komarova, T.G.Kazakova, Z.V.Lishtvan, A.N.Davidchuk, A.V.Kutsakova, N.B.Xalezova, N.A.Kurochkina, L.A.Paramonova, T.N.Doronova, Z.A.Bogateyeva, A.A.Volkova, M.A.Gusakova, N.M.Zubaryeva, V.B.Kominskaya, N.B.Xalezova, N.P.Kosterin, B.M.Marshak, S.V.Parafeyeva, G.N.Panteleyev, V.A.Slivok, L.G.Suxovskaya, E.I.Vasilyeva, E.A.Flerina, R.M.Chumicheva, G.S.Shvayko, N.Ya.Shibanov kabilar, O'zbekistonda E.A.Naneashvili, T.L.Chabrova, G.G.Korneyevalarning ilmiy izlanishlari ham bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan muayyan qiziqish uyg'otadi. Ular o'z ilmiy faoliyatlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida turli yosh guruuhlaridagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodlarini, bolalarda ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish va unga rahbarlik qilish, qurish-yasash, rasm chizish, qirqib elimlash, loy ishi mashg'ulotlarini rejalashtirish va olib borishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqanlar. Xususan, N.M.Zubareva bolalarni estetik tarbiyalashda natormort va peyzaj janrlarining ta'limiy imkoniyatlarini ochib bergen.

Tasviriy savodxonlikning turli yo'naliшlari o'zbekistonlik olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Jumladan, grafik savodxonlik (A.Sulaymonov – kitob grafikasi misolida), badiiy naqqoshlik bo'yicha savodxonlik (R.Hasanov – boshlang'ich naqsh chizish misolida), qurish yasash faoliyati bilan bog'liq savodxonlik (H.Egamov) yo'naliшhida muayyan ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilgan. Biroq bu tadqiqot va ishlanmalarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tasviriy savodxonligi masalalari qamrab olinmagan.

Ilmiy tadqiqot ishlarini va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, hech bir tadqiqotchi ilmiy izlanishlari jarayonida maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy san'at turlarini, ularni bir-biridan farqlashni o'rgatish, shuningdek, tasviriy savodxonlik elementlaridan foydalanish orqali maktabgacha katta yoshdagи bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishmagan. Shuning uchun ham biz tanlagan mavzu mamlakatimiz pedagogika nazariyasidagi dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida ishlab chiqiladigan qo'llanmalar, bolalarni maktabga tayyorligini tekshirishda (tashhis qilishda) D.CHeypi, Kern-Yirasek, L.A.Venger kabi olimlar ishlab chiqqan va amalda qo'llanib kelinayotgan testlardan maktabgacha katta yoshdagи bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash jarayonidan muvaffaqiyatl o'tishlarida yordam beradi.

**Tadqiqotning maqsadi:** katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti:** maktabgacha ta'lif muassasalarining katta va tayyorlov guruhi bolalarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** katta va tayyorlov guruhi bolalarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- mavzuga oid pedagogik manbalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- muammoning nazariya va amaliyotdagi ahvolini o'rganish hamda tahlil qilish;
- maktabgacha ta'lif muassasalarining katta va tayyorlov guruhi bolalarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish;
- bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligini amaliy tajribada sinab ko'rish;
- tadqiqot natijalari asosida respublikadagi maktabgacha ta'lif muassasalari xodimlari va tarbiyalanuvchilar uchun bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish yozasidan ilmiy-metodik tavsiyalar va qo'llanmalar yaratish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi** shundan iboratki, maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish orqali ularni matabda o'qishga tayyorlash jarayoni samarali kechadi, agarda:

- bolalarning yoshiga, imkoniyatlariga, qiziqishlariga mos ta'lif mazmuni, ijodiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqilsa;
- tasviriy va amaliy san'atdan tarixiy an'analar, zamonaviy yondashuvlar va ta'lifning interfaol usullaridan samarali foydalanilsa;
- ta'lif mazmuni ilmiy asoslangan, uning metodikasi amaliyotda sinab ko'rigan holda joriy etilsa;
- ta'lif-tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi ijodkorligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi, faolligi ta'minlansa;
- bolalarda maktabgacha ta'lif yoshida tasviriy faoliyat yo'nalishi bo'yicha beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar ma'lum tizim, izchillik va uzviylikda berib borilsa.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga bag'ishlangan Farmonlari, falsafaning bilish nazariysi, uning shaxsni shakllantirishdagi pedagogik va psixologik talqinlari, maktabgacha ta'lif to'g'risidagi Nizom, maktabgacha ta'lifning Davlat talablari, «Uchinchi ming yillikning bolasisi» tayanch dasturi va o'quv qo'llanmasi, shuningdek, bolaning shaxs sifatida kamolga etishida tasviriy faoliyatning o'rnni ko'rsatuvchi manbalar, barkamol insonni tarbiyalashdagi pedagogik va psixologik g'oyalar.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan metodlar:**

- tadqiqot mavzusiga doir falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni, hukumatimizning rasmiy hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- amaliyotda bolalarni tasviriy savodxonlikka o'rgatishga oid dastur, o'quv va metodik qo'llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;
- maktabgacha ta'lif muassasalari rahbarlari va pedagoglari, ota-onalar hamda bolalar bilan mavzu bo'yicha umumiyligi, yakka tartibda yozma va og'zaki suhbatlar uroshtirish, anketa so'rovlarini o'tkazish;
- maxsus ishlanmalar asosida bajarilgan ishlarni pedagogik eksperimentdan o'tkazish;
- tajriba-sinov ishlarini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan foydalanish;
- tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik jihatdan qayta ishslash va umumlashtirish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** shundan iboratki, unda maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammosi O'zbekiston sharoitida uning o'ziga xos jihatlari va qirralarini yoritgani holda ilk marotaba ilmiy ravishda tadqiq etildi. Maktabgacha

katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, ular asosida bu jarayonni ta'minlovchi pedagogik tizim hamda unga kiruvchi topshiriqlar tizimi, ularni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodikasi, matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga va ularni ta'limning keyingi turi - boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltirilgan, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Matabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy savodxonligini elementar tarzda shakllantirishning ilmiy asoslangan va eksperimental sinab ko'rilgan mazmuni (pedagogik tizim, grafik, applikatsion, haykaltaroshlik va tasviriy faoliyatning boshqa turlari bo'yicha) va metodikasi, matabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish bo'yicha nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, tasviriy savodxonlik tushunchasiga pedagogik ta'rif berilib, uning komponentlari, savodxonlik darajasini aniqlash mezonlari yaratildi.

#### **Tadqiqotning nazariy ahamiyati:**

1. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga oid ilmiy manbalar, jumladan xorijiy manbalarning tahlili asosida tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.
2. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim, bu tizimning asosiy komponentlari bolalarda tasviriy savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar mazmuni, ularni tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi.
4. Matabgacha katta yoshdagi bolalar guruhi tasviriy faoliyat dasturi ilmiy va amaliy asoslangan yangiliklar va o'zgartirishlar kiritilgan holda takomillashtirildi.

#### **Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot muammosining mohiyati va uning natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiya, qo'llanma hamda boshqa ishlannmalar matabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari, jumladan, tarbiyachi, tasviriy faoliyat to'garak rahbarlariga bolalarda tasviriy faoliyat savodxonligining dastlabki elementlarini shakllantirish jarayonida qo'l keladi. Tadqiqot jarayonida paydo bo'lgan g'oyalaridan pedagogika bilim iortlari va pedagogika oliv o'quv iortlarida tasviriy faoliyat o'qtish metodikasi bo'yicha beriladigan ma'ruza mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan metodik tavsiyalar matabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini yanada takomillashtirishga, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

1. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi.
2. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning mavjud ahvolining pedagogik tahlili.
3. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari.
4. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimi.
5. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning samaradorligi.

#### **Tadqiqotning bosqichlari:** tadqiqot ishi uch bosqichda amalga oshirildi:

**Birinchi bosqich** (2004 yil)da ilmiy tadqiqot mavzusiga aloqador va unga yaqin bo'lgan ilmiy, ilmiy-metodik manbalar o'rganildi. Matabgacha katta yosh guruhlarida tasviriy faoliyat bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlar kuzatilib, tahlil etildi. Shu asnoda matabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarida tasviriy savodxonlik bo'yicha mavjud bilimlar aniqlandi, iotuq va kamchiliklar tahlil etildi.

**Ikkinci bosqich** (2005 yil)da tadqiqot dasturi, nazariy asosi va mazmuni aniqlandi. Matabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning yaxlit

pedagogik tizimi yaratildi hamda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganlik darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

**Uchinchi bosqich** (2005-2006 yillar)da tajriba-sinov ishlarini olib borishda faol qatnashadigan tarbiyachilar maxsus tayyorgarlikdan o'tkazildi; ishlab chiqilgan pedagogik tizim eksperimental sharoitda tajriba-sinovdan o'tkazildi, olingen natijalar matematik-statistik metod orqali qayta ishlaniib, umumlashtirildi; maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanishiga xizmat qiladigan metodik qo'llanma va tavsiyalar yaratildi.

**Ishning sinovdan o'tkazilganligi:** tadqiqot natijalari Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 132, 250, 323-sonli, Mirobod tumanidagi 398, 389-sonli, Sirdaryo viloyati Guliston shahar 7, 22-sonli, Boyovut tuman 3, 12-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarida aprobatsiyadan o'tkazildi. Tadqiqot 2006 yilda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining «Pedagogika va psixologiya» bo'limining kengaytirilgan majlisida, Nizomiy nomidagi TDPUning «Maktabgacha va oilaviy ta'lim» va “Pedagogika” kafedralarining qo'shma yig'ilishida, T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI ilmiy metodologik seminarlarida atroflicha muhokama qilingan va himoya uchun tavsiya etilgan.

**Natijalarni e'lon qilinganligi:** muallif tomonidan 1 ta metodik qo'llanma, 1 ta o'quv dasturi 7 ta ilmiy maqola va 1 ta Respublika nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyasida tezis, jami 10 nomda ish nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi:** dissertatsiya kirish, 3 bob, 7 paragraf, umumi xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat, uning umumiy hajmi 175 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbliji, mavjud ijtimoiy ehtiyoj va uning mohiyati, ishlanganlik darajasi tahlil etilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi, ob'ekti, predmeti, ilmiy farazi, metodologik asoslari, qo'llanilgan metodlar, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik asoslari**» deb nomlanib, unda maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida tadqiq etilib, maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik nazariyadagi hamda ta'lim amaliyotidagi ahvolining tahlili bayon etilgan.

Mavjud holatni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, shuningdek, kuzatish va tajriba-sinov natijalari maktabgacha ta'lim pedagogikasida hozirgi kunda bir qator muammolar, jumladan bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammosi mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi faoliyat turlarining ma'lum tizimga solinmaganligi ham bu boradagi muammolar sirasiga kiradi. Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllashtirishga qaratilgan mashg'ulotlarni orqali bolalar muktab ta'limiga etarli darajada tayyor bo'lib chiqishlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday ishlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha hozirda qator muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning etarli bo'lmaganligi;
- tarbiyachilarining tasviriy savodxonlik bo'yicha etarli bilimga ega emasliklari;
- ota-onalarining ta'lim-tarbiya ishiga jalb etilmaganligi;
- tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish, olib borish bo'yicha adabiyotlarning etishmasligi;
- bu borada olib borilayotgan ishlar nazoratining sustligi;
- malaka oshirish kurslarida tarbiyachilar etarlicha yangi ma'lumotlar, ish metodlarini o'zlashtirmaganliklari.

Tadqiqot mavzusiga oid manbalar mazmunida ilgari surilgan g'oyalar va tayanch tushunchalarga asosan tasviriy savodxonlik tushunchasiga pedagogik ta'rifni keltirish mumkin.

Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarning "tasviriy savodxonligi" deganda bola mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushuna olishi va mavzuga mos mazmunni tasviriy san'at materiallari orqali ifodalash malakasi, faol va nofaol nutqida tasviriy san'atga doir so'z, atama, iboralar zahirasining mavjudligi, texnik malakalarning egallanganligi, rasm chizish jarayonida ishlataladigan turli materiallarni o'ziga xos jihatlarini, afzallik va qulayliklarini, xususiyatlarini bilishlari, topshiriqni bajarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tasvirlayotgan narsasiga ish jarayonida o'zgartirishlar kiritish malakasining, o'z ishini solishtirma nazorat qila olishi, xatosining sababini aniqlab, uni o'z vaqtida tuzata olish malakasi mavjudligi tushuniladi. Shu bilan birga bolada musavvirlarning ijod mahsullarini o'rganish, kuzatish chog'ida uni tahlil qila olish malakasining mavjudligi va nihoyat, bajarilgan ishning sifat darajasini, ish jarayonida ozodalik va tartiblilikka rioya qilish malakasi kabilar tushuniladi.

- Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos. Bolalar rasm, qurish- yasash, loy ishi, qirqib elimlash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yoqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda quyidagi sifatlar shakllanadi:

- qalam, mo'yqalamni ushslash, loy, plastilin bilan ishslash, qaychida ayrim narsalarni qirqib elimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallahsga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga qarata olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;
- boshlang'ich texnik malakalari shakllantiriladi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni, ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishni rejalshtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishslash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning mazmuni va metodikasi**" deb nomlanadi.

Muammoning nazariy va amaliy jihatdan o'rganilishini tahlil etish, shuningdek, olib borilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining natijalariga asoslangan holda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning mazmuni, uni tanlash mezonlarini ishlab chiqishning nazariy - pedagogik asoslari, pedagogik tizimi va uzviyliги (metodikasi, shakli va vositalari) yaratildi.

Tasviriy san'at yo'nalishida bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishda tizimlilik qoidasiga asoslanib, ularni quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir:

- tasviriy san'atning janrlari - portret, peyzaj, natormort haqida elementar tasavvurlarga ega bo'lish va shu janrlar bo'yicha elementar ko'rinishda rasm chiza olish;
- o'zbek musavvirlarining ayrim ishlari bilan tanishish;
- o'zbek xalqi amaliy san'atining o'ziga xos jihatlarini haqida tasavvurga ega bo'lish;
- kashtachilik, naqqoshlik, kitobat san'ati, kulolchilik kabi o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridagi ayrim chizgilarni tasvirlay olish ko'nikmasini hosil qilish;
- mo'yqalam, qalam kabi texnik vositalardan foydalangan holda tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlay olish;
- tasavvur, natura, hikoya yoki ertak asosida rasm chiza olish, narsalar yasash va qirqib elimlashni bilish;
- qurilish materiallaridan, turli konstruktur, lego va mozaikalardan foydalangan holda chizmalar asosida hamda mustaqil holda narsalar yasay olish;

- qaychidan foydalangan holda geometrik shakllarni va sodda narsalarni kontur, simmetrik, ikkiga, to'rtga buklagan holda kesib ularni qirqib elimlash vositasida turli tasvir, shakllar hosil qilish;

- rasm chizishda klyaksografiya, uzun qog'ozga birlashtirish chizish, sirli rasm chizish, nuqtali rasm, topishmoq rasm, kollaj kabi noan'anaviy metodlardan foydalangan holda rasm chizishni bilish va h.k.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarning tahminan 33%i oliv ma'lumotga ega ekanligini, Respublikamizning uzoq tuman va qishloqlaridagi muassasalarda hatto o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar ham faoliyat ko'rsatayotganligini inobatga olgan holda yangi takomillashtirilgan tayanch dastur va qo'llanma quyidagi talablardan kelib chiqqan holda yaratilishi mutaxassislar uchun quayliklar yaratadi:

- dasturning har bir yo'nalishi uchun tushuntirish xatini mavjudligi;
- yo'nalishlar bo'yicha metodik ko'rsatmalar berilishi;
- yo'nalishlar bo'yicha har bir guruhda amalga oshiriladigan ishlar, bolalarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar to'liq bayon etilishi;
- har bir yosh guruhi uchun haftalik mashg'ulotlar jadvali aniq va to'g'ri tuzilgan bo'lishi;
- haftalik mashg'ulotlar jadvalidan kelib chiqqan holda barcha yosh guruhlar uchun taxminiy 9 oylik rejaning namunaviy variantini berish;
- kundalik rejani yozishning taxminiy, namunaviy ko'rinishi;
- har bir yo'nalish bo'yicha o'tiladigan mashg'ulot mavzulari (yildan yilga bir-birini takrorlamagan, aksincha mukammallashtirigan va takomillashtirilgan holda);
- yo'nalishlar bo'yicha mashg'ulot jadvallari;
- badiiy adabiyot, nutq o'stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlari uchun tanlangan ertak, hikoya, she'rlardan tuzilgan qo'llanma, dastur bilan birga nashrdan chiqishi;
- barcha yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy, integral tarzda tuzilgan mashg'ulot ishlanmalari. Mashg'ulot ishlanmalari quyidagi qismlardan: mavzu, dastur mazmuni, mashg'ulotga tayyorgarlik, kerakli jihozlar, mashg'ulotning borishi kabilardan iborat bo'lishi;
- dastur, qo'llanma kamida ikki tilda (rus, o'zbek) nashr etilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish va ta'lifning keyingi bosqichida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalo, maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim.

Dissertsianing uchinchi bobi "**Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish iozasidan tajriba-sinov ishlari**" deb nomlanib, unda bolalarni tasviriy savodxonligini shakllantirish iozasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining rejasи va dasturi, tajriba-sinov ishlari natijalarining umumlashgan tahlili yoritilgan.

Tadqiqot mavzusini nazariya va amaliyotdagi ahvolini o'rganish avvalo, mavjud holatning atroflicha tahlili asosida maktabgacha ta'lif muassasalari sharoitida maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning mazmuni va metodlarini takomillashtirishga qaratilib, unda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

1. Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish. Zero, bolalarda tadqiq etilayotgan sifatlarni shakllanganligini belgilashning muayyan talablari mavjud. Ishlab chiqilgan mezonlar shu talabni e'tiborga olinishini ta'minlaydi.

2. Maktabgacha ta'lif uchun yaratilgan Davlat talablariga tayangan holda tasviriy faoliyatga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish asosida yangicha ta'lif berish ishlarini yo'lga qo'yish. Bu ishlar ta'lif mazmuni, metodlarini boyitishni ham nazarda tutadi.

3. Davlat talablari asosida yaratilgan "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturiga minimum sifatida qarab, bolalarga beriladigan bilimlarni tizimli va takomillashgan holda berib borilishga erishish.

4. Tasviriy faoliyat turkumidagi mashg'ulotlarni boshqa faoliyatlar bilan o'zaro aloqalarini yanada takomillashtirish.

5. Mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtarda tasviriy faoliyat bo‘yicha o‘tiladigan mavzular o‘rtasida uzviylik, uzuksizlik va tizimlilikka rivoja qilish.

6. Tasviriy faoliyat bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda tasviriy savodxonlikning dastlabki elementlarini shakllantirishda kerak bo‘ladigan bazani yaratish.

7. Tarbiyachi-pedagoglarni tasviriy faoliyat mashg‘ulotlariga doir yangi, zamonaviy metodik qo‘llanmalar va adabiyotlar bilan ta’minalash.

Yuqorida sanab o‘tilgan talablarni amalga oshirish maqsadida quyidagi ishlar bajarildi:

1. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqildi.

2. Tarbiyachilar, ota-onalar, bolalar uchun anketa savollari tuzildi.

3. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish uchun shuningdek, bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga qaratilgan metodika, mashg‘ulot ishlanmalari va boshqa jihozlar tayyorlandi.

4. Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish ishlarida qatnashuvchi tarbiyachilar bilan tushuntirish ishlari, suhbatlar o‘tkazildi, ularga metodik tavsiyalar berildi.

5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganlik darajasini aniqlashning mezonlari ishlab chiqildi.

Bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan mezonlarga muvofiq tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganligini 1-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida uchta darajaga ajratdik.

1 – jadval

#### **Bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllanganlik darajasini belgilash mezonlari**

Daraja-lar	Darajalarni belgilash mezoni
Yuqori	Tasviriy san’atga doir tushuncha va atama, so‘z, iboralar bolaning faol va nofaol lug‘atida mavjud. Bola o‘z nutqida ularning ma’no,mazmunini tushungan holda foydalanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘tiladigan tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi faoliyat turlarini va bunday mashg‘ulotlar jarayonida bolalar nimalar bilan shug‘ullanishlarini biladi. Tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarga nisbatan qiziqishi mavjud va ularda faol qatnashadi. Mashg‘ulotlar jarayonida ishni bajarishga nisbatan ijodiy yondashadi, qiladigan ishini rejalaشتiradi va boshlaganini oxiriga etkazadi. Texnik malakalari shakllangan. Ishni mustaqil bajara oladi. Chizgan, yasagan narsasini boshqalarning ishi bilan taqqoslaganda ob’ektiv baho bera oladi, kamchiliklarini ko‘ra oladi va ularga kerakli tuzatishlar kiritadi. Inson, predmet, hayvon va hasharotlarni tasvirlashda va yashashda ularni real hajmini inobatga olgan holda joylashtiradi va tasvirlaydi. Rasm chizishda va qirqib elimlashda tasvirni qog‘oz sathida to‘g‘ri joylashtira oladi (yaqindagisini katta, uzoqdagisini kichik, predmetlarni bir-birini to‘sib turishi, arning keng sathida tasvirlanajak narsani to‘g‘ri joylashtirishi). Mashg‘ulot davomida bo‘yoq, mo‘yqalam, plastilin va shu kabi materiallardan to‘g‘ri foydalanadi, ish jarayonida ozodalikka, batartiblikka rivoja qiladi (salfetka, suvdan o‘z vaqtida foydalanadi, ish qurollari bilan ishlash tartibiga amal qiladi).

O'rtta	Tasviriy san'atga doir tushuncha va atama, so'z, iboralar bolaning faol va nofaol lug'atida mavjud. Bola ularning ma'no, mazmunini tushungan holda vaqtı-vaqtı bilan o'z nutqida foydalanadi. Maktabgacha ta'lif muassasasida o'tiladigan tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi faoliyat turlarini ayrimlarini va bunday mashg'ulotlar jarayonida bolalar nimalar bilan shug'ullanishlarini biladi. Tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishi o'rtacha. Texnik malakalari shakllangan. Ishni mustaqil, ayrim paytlarda tarbiyachining yordami (maslahati, tavsiyasi) bilan bajara oladi. CHizgan, yasagan narsasini boshqalarning ishi bilan taqqoslaganda ob'ektiv baho bera oladi. Inson, predmet, hayvon va hasharotlarni tasvirlashda va yasashda ularni real hajmini inobatga olishga harakat qiladi, lekin har doim ham kutilgan natijaga erishilmaydi. Mashg'ulot davomida bo'yoq, mo'yqalam, plastilin va shu kabi materiallardan to'g'ri foydalanadi, ish jarayonida ozodalikka, batartiblikka rioya qiladi (salfetka, suvdan o'z vaqtida foydalanadi).
Past	Tasviriy san'atga doir tushuncha va atama, so'z, iboralar bolaning faol va nofaol lug'atida oz miqdorda mavjud. Ularning ma'no, mazmunini yaxshi tushunmaydi, ulardan vaqtı-vaqtı bilan nutqida foydalanadi. Maktabgacha ta'lif muassasasida o'tiladigan tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi faoliyat turlarini ayrimlarini va bunday mashg'ulotlar jarayonida bolalar nimalar bilan shug'ullanishlarini qisman biladi. Tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishi past. Texnik malakalari to'liq shakllanmagan. Ishni tarbiyachining yordami, maslahati, tavsiyasi bilan bajara oladi. CHizgan, yasagan narsasini boshqalarning ishi bilan taqqoslashni istamaydi. Mashg'ulot davomida bo'yoq, mo'yqalam, plastilin va shu kabi materiallardan foydalanadi, ish jarayonida ozodalikka, batartiblikka har doim ham rioya qilavermaydi.

Yuqorida mezonlarga asoslangan holda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish bo'yicha ular egallashlari kerak bo'lgan malakalar aniqlanib quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushuna olishi va mavzuga mos mazmunni tasviriy san'at materiallari orqali ifodalash malakasi.
2. Bolalar faol va nofaol nutqida tasviriy san'atga doir so'z, atama va iboralar zahirasining mavjudligi.
3. Texnik malakalarning egallanganligi.
4. Rasm chizish jarayonida ishlataladigan turli materiallarni o'ziga xos jihatlarini, afzallik va qulayliklarini, xususiyatlarini bilishlari.
5. Topshiriqni bajarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tasvirlayotgan narsasiga ish jarayonida o'zgartirishlar kiritma olish.
6. O'z ishini qiyosiy nazorat qila olishi, xatosining sababini aniqlab, uni o'z vaqtida tuzata olish.
7. Musavvirlarning ijod mahsullarini o'rganish, kuzatish chog'ida uni tahlil qila olish malakasining mavjudligi.
8. Bajarilgan ishning sifat darajasini, ish jarayonida ozodalik va tartiblilikka rioya qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan malakalarini shakllantirish jarayonida bolalarni yosh, individual, anatomiq-fiziologik, intellektual, psixologik, jismoniy kabi bir qator xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlar oddiyidan-murakkabga, izchillilik, tizimililik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Shu bois har bir alohida olingan malakalarning shakllanganlik darajasining ko'rsatkichi ishlab chiqilib, ularni uch bosqichga bo'ldik. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

**2-jadval**

**Bolalarda tasviriy faoliyat malakalarining rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlari**

<b>Malakalar</b>	<b>Yuqori</b>	<b>O'rta</b>	<b>Past</b>
1	2	3	4
1.Mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushuna olish.	Mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushunadi, ya'ni tarbiyachi ko'rsatmasi asosida ishini rejalashtiradi va o'z ishida mavzuni ochib bera oladi.	Mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushunadi, tarbiyachi ko'rsatmasi asosida ishini rejalashtiradi va o'z ishida mavzuni ochib berishga harakat qiladi. Lekin har doim ham yaxshi natijaga erishilmaydi.	Mashg'ulotning maqsadi, vazifasini tushunadi, biroq yaxshi anglamaydi, har doim tarbiyachi ko'rsatmasi asosida ishini rejalashtiradi. Mavzuni ochib bera olmaydi. CHunki malakasi va qanoati etishmaydi.
davomi			
1	2	3	4
2. Bolalarda faol va nofaol nutqida tasviriy san'atga doir so'z, atama va iboralar zahirasining mayjudligi.	Tasviriy san'atga doir so'zlarining ma'nosini ongli ravishda tushunib etadi va og'zaki nutqida qo'llaydi.	Tasviriy san'atga aloqador so'z va atamalar bolaning nofaol lug'atida mavjud, lekin ularni o'z nutqida kam ishlatadi.	Tasviriy san'atga doir so'z, atama va iboralar zahirasi etarli emas. Uлarni nutqida deyarli ishlatmaydi.
3. Texnik malakalarning egallanganligi.	Qalam, mo'yqalam, bo'yoq, flomaster, plastilin, loy, stek, qaychi, qog'oz kabi mashg'ulotlarda ishlatiladigan jihozlardan foydalanishning turli yo'l va usullarini biladi va ularni ish jarayonida qo'llaydi. Bolalarning mayda qo'l mushaklari yaxshi rivojlangan.	Qalam, mo'yqalam, bo'yoq, flomaster, plastilin, loy, stek, qaychi, qog'oz kabi mashg'ulotlarda ishlatiladigan jihozlardan ish jarayonida to'g'ri foydalanadi.	Bolalarning mayda qo'l mushaklari yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tasviriy san'at jihozlaridan to'g'ri foydalana olmaydi. Ish jarayonida tartib-qoidaga etarli darajada rioya qilmaydi.
4. Tasviriy faoliyat jarayonida ishlatiladigan turli materiallarni o'ziga xos jihatlarini, afzallik va qulayliklarini, xususiyatlarini bilish.	Mo'yqalamning nomeriga ko'ra turli hajmda va mo'yining qattiq iomshoqligiga ko'ra mashg'ulot mavzusiga ko'ra ularni tanlay biladi. Bo'yoq, qalam kabi materiallarning ham o'ziga xos xususiyatlarini, afzallik tomonlarini tushungan holda ulardan o'z ishlarida foydalanadi.	Bo'yoq, qalam kabi materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini, afzallik tomonlarini tushungan holda ulardan o'z ishlarida foydalanadi.	Bo'yoq, qalam kabi materiallarning ham o'ziga xos xususiyatlarini, afzallik tomonlarini tushungan holda ulardan o'z ishlarida foydalanadi. Lekin ulardan foydalanish-da har doim ham qoidaga amal qilmaydi, shuning uchun ish

			qurollari tezda ishdan chiqadi.
5. Topshiriqni bajarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik shakllangan. Topshiriqqa mustaqil o'zgartirishlar kirit oladi. Birgina mavzuga moslab bir necha variantlarni o'ylab topadi. O'z ishida rasm chizish, qurish-yasash va boshqa faoliyatlarda bir mashg'ulotning o'zida bir nechta metodlardan foydalana oladi.	Topshiriqqa qisman o'zgartirishlar kiritadi, lekin o'zi ifodalagan shakl mazmunini tushuntirib berishga qiynaladi.	Topshiriqqa qo'shimcha hech qanday o'zgartirish kiritmaydi. Berilgan ishni ham talab darajasida bajara olmaydi.	
6. O'z ishini qiyosiy nazorat qila olishi, xatosining sababini aniqlab, uni o'z vaqtida tuzata olish.	Ish jarayonidagi xatolarni ko'ra oladi va ularni tuzatib boradi, sababini tushuntirib beradi.	Bajargan ishida ba'zan xatolikka yo'l qo'yadi, sababini tushunib etmaydi, ko'rsatma asosida xatosini tuzata oladi.	Berilgan topshiriqni xato bajaradi, o'zi yo'l qo'ygan kamchiligining sababini anglab etmaydi.

davomi

1	2	3	4
7. Tasviriy san'at ustalarining ijod mahsullarini o'rganish, kuzatish chog'ida uni tahlil qila olish.	Tasviriy san'atning turli janrlarida ijod qiluvchi rassomlarning nomlarini biladi. Ularning asarlarini qiziqish bilan kuzatadi va tahlil qiladi. Masalan, tasviriy san'atning qaysi tur va janriga taalluqli ekanligini, ish davomida tabiatning qaysi ko'rinishini ifodalaganligini ayta oladi. Asarda muallif ko'proq qaysi ranglardan foydalanganligini, qanday bo'yoqlar bilan ishlaganligini biladi.	Tasviriy san'atning turli janrlarida ijod qiluvchi ayrim rassomlarning nomlarini biladi. Ularning asarlarini (tasviriy san'atning qaysi tur va janriga taalluqli ekanligini, ish davomida ko'proq qaysi ranglardan foydalanganligini, qanday bo'yoqlar bilan ishlaganligini va h.k.) tahlil qiladi.	Rassom va tasviriy san'at sohiblarining bitta-ikkitasini nomini ayta oladi. Lekin qaysi yo'nalishda ijod qilishlarini bilmaydi. Asarlarini tahlil qilishda muallif ish davomida ko'proq qaysi ranglardan foydalanganligini, qanday bo'yoqlar bilan ishlaganligini qiyinchilik bilan tahlil qiladi.
8. Bajarilgan ishning sifat darjasasi, ish jarayonida ozodalik va tartiblilikka rioya qilish.	Ishni talab darajasida sifatlari bajaradi. Ish jarayonida ozodalikka, tartiblilikka rioya qiladi va boshqalarga o'mak bo'ladi.	Ishini qisman sifatlari bajaradi, lekin ish qurollari va ish o'rni tartibsiz turadi, ularni ozoda saqlay olmaydi.	Ish sifatsiz bajariladi va deyarli talabga javob bermaydi. Ish o'rni va materiallari tartibsiz turadi.

Tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruqlarida 650 dan ortiq bolalar bilan 7 ta mezon ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilgan. Shundan biz matematik-statistik tahlil qilish uchun 5 ta guruhni tanlab oldik. Tajriba va nazorat guruqlarining tajriba yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari quyidagicha:

Guruqlar	Javoblar		
	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba n <sub>i</sub> q130	84	25	11
Nazorat m <sub>i</sub> q130	35	38	47

Teshirish natijasida

$$\bar{X} = 4,56 \quad \tau_m = 0,65 \quad \delta_m = 0,14$$

$$\bar{Y} = 3,98 \quad \tau_n = 0,62 \quad \delta_n = 0,16$$

tengligi aniqlandi. Bularidan baholash ishonchli chetlanishlarini topamiz:

$$\Delta_m = t_{kp} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,42}{\sqrt{130}} = \frac{0,7}{11,4} = 0,06 \quad \Delta_n = t_{kp} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,38}{\sqrt{130}} = 1,67 \cdot 0,05 = 0,08$$

Demak, bahoning ishonchli intervalari tajriba-sinov guruhi uchun


$$\bar{X} - \Delta_m \leq 4,56 - 0,06 \leq 4,5$$

$$\bar{X} + \Delta_m \leq 4,56 + 0,06 \leq 4,62 \quad 4,5 \leq a_x \leq 4,62$$

nazorat guruhi uchun

$$\bar{Y} - \Delta_n \leq 3,98 - 0,05 \leq 3,93$$

$\bar{Y} + \Delta_n \leq 3,98 + 0,05 \leq 4,03 \quad 3,93 \leq a_y \leq 4,03$  ga teng. Buni geometrik tasviri quyidagicha bo'ladi:



$$K_{yc\delta} = \frac{\bar{X} - \Delta_m}{\bar{Y} + \Delta_n} = \frac{4,56 - 0,06}{3,98 + 0,05} = \frac{4,5}{4,03} = 1,12 > 1$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = 4,56 - 3,93 = 0,63 > 0$$

Tajriba-sinov natijalarining tahlilidan ayon bo'ldiki, dissertatsiyaning asosiy g'oyasi – muktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim o'zining samarasini ko'rsatdi. Ilmiy xulosa asosida ishlab chiqilgan mazmun va metodika muktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etilishi mumkin. Bu omil nafaqat bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantiradi, balki ularni muktab ta'limiga tayyorlashning muhim omili sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

## UMUMIY XULOSALAR

Tadqiqot muammosi bo'yicha mavjud holatni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, shuningdek, tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining umumiyo ko'rinishi va natijalariga tayangan holda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida quyidagi muammolar mavjudligi ma'lum bo'ldi.

1. Muktabgacha ta'lim muassasalarining rahbarlari hamda mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar tomonidan muktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlariga jiddiy e'tibor qaratilmasligi.

2. Muktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning ilmiy asoslangan pedagogik tizimi ishlab chiqilmaganligi.

3. Muktabgacha yoshdagi bolalarda ularning milliy mintalitetidan kelib chiqqan holda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga yo'naltirilgan zamонави о'кув-методик адабиётлар, тавсиyalarning ishlab chiqilmaganligi.

Ma'lumki, ijtimoiy hayot yoki muayyan faoliyat yo'nalishlarida юзага kelgan muammolar o'z vaqtida tezkorlik bilan hal etilishi lozim. Masalaga aynan shu tarzda yondashilganda muktabgacha

yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish yo‘lidagi muammolar ham o‘z echimini topishi va bu borada samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ana shu maqsadda tadqiqot jarayonida muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilashga urinib ko‘rdik. Natijasi mavjud muammolarni hal etish yo‘llarini ularning mohiyati asosida belgilash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish borasidagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari quyidagilardan iboratligi ayon bo‘ldi.

1. Pedagogika institutlarida va pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlarida talabalarga bilim berishda professor-o‘qituvchilar o‘quv mashg‘ulotlarini zamon bilan hamnafas holda olib borishlari lozim. O‘quv muassasalarida berilayotgan nazariy bilimlar amaliyot bilan hamohang ravishda bo‘lishi va ular maktabgacha ta’lim muassasalariga amaliyot chog‘ida borilganda mashg‘ulotlarni o‘tish orqali mustahkamlanishiga e’tibor qaratish.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarining viloyatlardagi ahvolini o‘rganish ularni pedagog kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi talab darajasida ekanligini ko‘rsatdi. Ta’lim muassasalariga kadrlarni ishga qabul qilishda o‘ziga xos raqobatni ta’minlash hamda mutaxassislarni tanlov asosida ishga olish, ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlash sifati ortishini ta’minlaydi.

3. Maktabgacha ta’lim muassasalarining rahbarlari hamda mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga nisbatan jiddiy e’tibor qaratilishiga erishish. Mazkur talabning mohiyati maktabgacha ta’lim muassasalarining rahbarlari, shu jumladan, tarbiyachilarning o‘zlarini avvalo, tasviriy san’at va tasviriy faoliyat bo‘yicha bilimlarini oshirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini ishlab chiqish. Ushbu holatning amalga oshirish tadqiqot ishini olib borishdan ko‘zlangan maqsad mohiyatini ifoda etgani holda kelgusida mazkur yo‘nalishda samarali faoliyatni tashkil etish borasida eng muhim imkoniyatning yaratilishi uchun zamin hozirlaydi.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishda samaradorlikka erishishning amaliy asoslarini ishlab chiqish (ya’ni, maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash). Ushbu holatni amaliyotda o‘z aksini topishi nafaqat tadqiqot maqsadiga erishishni, balki maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar uchun zarur sanalgan metodik qo‘llanmalarning yaratilishini ta’minlaydi.

6. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini yangi zamon ruhi bilan boyitgan va har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari, an‘analarini hisobga olgan holda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish. Metodik tavsiyalarni ishlab chiqish maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat bo‘yicha malakalarning tegishli hajmini egallahsga va mashg‘ulotlar samaradorligini yoqori darajaga ko‘tarish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash tadqiq etilayotgan masalaning umumiyligi holatini aniqlash, asosiy maqsad yo‘lida tashkil etiluvchi faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yo‘nalishini puxta va aniq belgilash muayyan g‘oyalarni ishlab chiqish, ularning asosli bo‘lishiga erishish tadqiqot muammosini ijobjiy hal etishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammosi tadqiqot ishida ilgari surilgan ilmiy farazni tasdiqlaydi va qator nazariy xarakterdagi hamda amaliy tavsiyalarni ilgari surishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyatga doir ishlar hamdo‘stlik mamlakatlarida va mamlakatimizda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini O‘zbekiston sharoitida shakllantirishga qaratilgan ishlar hali ham etishmaydi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Tajriba-sinov natijalari orqali ilgari surilgan ilmiy faraz o‘z tasdig‘ini topdi va bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimi yaratildi.

2. Pedagogik-psixologik, metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali bolalarda tasviriy savoxdonlik elementlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqildi.

3. Amalda qo‘llanililib kelinayotgan tayanch dasturda tasviriy faoliyat yo‘nalishi, ular asosida o‘tiladigan mashg‘ulotlar metodik jihatdan to‘g‘ri taqsimlanmaganligi va pedagogik tizimga amal qilinmaganligi tufayli pedagoglar orasida bu faoliyat turi bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri olib bormaslik hollari aniqlandi. Biz ana shu masalaning echimini o‘z ilmiy tadqiqotimiz davomida ochishga qaratdik ya’ni tasviriy faolit turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarni tizimga solgan holda ularni bir necha guruhlarga (masalan: “O‘zbekistonda kuz fasli”, “Kumush qish” va h.k.) ajratgan holda ishlarni olib bordik va kutilgan natijaga erishdik.

4. Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqildi va aprobatasiyadan o‘tkazildi.

5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarni olib borishda quyidagi talablarga rioya qilish, ya’ni ta’lim mazmunini katta va tayyorlov guruh bolalarining yosh xususiyatlari, idroki, qiziqishlariga mos bo‘lishi, nazariy va amaliy ishlarning o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi, ta’lim jarayonini tarbiyalash va rivojlantirish bilan qo‘sib olib borish. Mashg‘ulotni borliq, atrofdagi go‘zalliklarni ko‘rish va tushunish bilan bog‘lash, shuningdek, tizimlilik, uzlusizlikni amalga oshirish, mashg‘ulotlar jarayonida ishlarni soddadan-murakkabga qarab rejalashtirish.

6. Bolalar bilan o‘tiladigan mashg‘ulotlar jarayoniga o‘yin vaziyatlarini olib kirish, interfaol usullardan, treninglardan foydalanish va ishlarni o‘zaro musobaqa tarzida tashkil etish orqali ularning qiziqishini, faolligini oshirishga erishish.

7. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, tanlangan materiallar bolalarda emotsiyonal hissiyotlar uyg‘otdi va bolalarning tasviriy savodxonlik elementlarini rivojlantirishda yaxshi natijalarni berdi. Buning uchun mashg‘ulotlar mazmuni, tuzilishi, tashkil etish usullari orqali bolalarda katta qiziqish uyg‘otish lozim.

### Tavsiyalar

Dissertatsiyaning ilmiy xulosalari quyidagi tavsiyalarni taqdim etish imkonini beradi:

1. Maktabgacha ta’lim uchun yaratilgan Davlat talablarini takomillashgan variantini ishlab chiqish va tasdiqlash. Uning asosida maktabgacha ta’lim muassasalari uchun qayta ishlangan va to‘ldirilgan tayanch dastur va o‘quv qo‘llanmalarning yangi avlodini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish.

2. Tarbiyachilarini o‘z vaqtida malaka oshirish kurslarida ta’lim olishlarini ta’minalash, malaka oshirishdan so‘ng esa hisobotlarini tinglash va o‘rganib kelgan yangiliklarini jamoa bilan o‘rtoqlashish.

3. Viloyat, tuman, maktabgacha ta’lim muassasalari avvalo O‘zbekiston hududida nashr etiladigan jurnallarga qo‘sishma ravishda yaqin horij mamlakatlarida nashr etilayotgan jurnal va metodik adabiyotlar bilan ta’minalishiga e’tiborni kuchaytirish. Amaliyotchilar tasviriy faoliyat borasida o‘z tajribalarini nazariy va metodik yangiliklarini o‘rganish asnosida muvaffaqiyatl faoliyat olib borishlari mumkin.

4. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini maktabgacha yoshdagи bolalarga beriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining bolalar ta’limning keyingi bosqichida muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun nechog‘lik ahamiyatga molik ekanligini, shuningdek yozuv malakalarini egalashdagi o‘rnini tushunib etishlari va o‘z vazifalarini mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan bajarishlari.

Bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammosi katta ishning bir bo‘lagi bo‘lib, kelgusida O‘zbekiston sharoitida maktabgacha ta’limning barcha yosh guruhlari uchun tasviriy faoliyat mazmunini pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lishi mumkin.

**Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallifning chop etilgan quyidagi ishlarida o‘z aksini topgan:**

1. Sabirova D., Abdullaeva D., Alimjonova G., Botirov S., Davlatov K., Jumaboeva N., Mirsolihev S., Sulaymonov I., Tojieva F., Ubaydullaeva G., Fayzieva U., Fozilov J., Xo‘jaev F., Qosimov A., Qodirova F., G‘ulomov M., Holmatova A. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurs tinglovchilari uchun maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash, maxsus ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat talablari, taqvimiyl-mavzuiy reja, o‘quv dasturlari. /Axborotnomaning maxsus soni 4-qism. – T.: 2004. 140-b.
2. Sabirova D. Maktabgacha ta’lim uzviyligi muammolari. /Uzluksiz ta’lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: 2004. 69-71-b.
3. Sabirova D. Bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish. //Xalq ta’limi j. – T.: 2004. № 3. 118-121-b.
4. Sabirova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dekorativ rasm ishslash malakalarini shakllantirish. // Xalq ta’limi j. - T.: 2004. № 6. 105-108-b.
5. Sabirova D. Tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishda uzviylik. // Uzluksiz ta’lim j. – T.: – 2004. № 6. 93-98-b.
6. Sabirova D. Tomchi haqida ertak (katta guruh uchun). // Maktabgacha ta’lim j. – T.: 2005. №2. 13-14-b.
7. Sabirova D. Maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish. // Pedagogik mahorat. - Buxoro. 2005, № 4. 21-23-b.
8. Sabirova D. Tarbiyachilarining malakalarini oshirish masalalari. / Lichnostno-orientirovannoe obuchenie i vospitanie na sovremennom etape (soderjanie, formy metody). Sbornik nauchno-metodicheskix statey v 7 chastyax. Chast 7. – T.: 2006. 27-29-b.
9. Sabirova D. “Kataklardagi quvnoq rasmlar” (5-7 yoshdagi bolalar uchun ish daftari). / Metodik qo‘llanma . – T.: 2006. 42-bet.
10. Sabirova D. Tasviriy faoliyat – muqobil yondashuv. //Maktabgacha ta’lim j. Toshkent. 2006. №5 11-14-betlar.

Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga talabgor SABIROVA Dono Tairdjanovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha “**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish**” mavzusidagi dissertatsiyasining

## R E Z Y U M E S I

**Tayanch so‘z va iboralar:** maktabgacha katta yoshdagi bolalar, tizim, uzbekiylik, mazmun, metodika, tasviriy savodxonlik elementlari, shakllantirish, tasviriy faoliyat.

**Tadqiqotning ob’ekti:** maktabgacha ta’lim muassasalarining katta va tayyorlov guruhi bolalarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqotning maqsadi:** katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvilarida tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodlari:** manbalarni tahlil qilish, umumiy, yakka tartibda yozma va og‘zaki suhbatlar uhoshtirish, anketa so‘rovlarni o‘tkazish, pedagogik eksperiment, zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlar, matematik-statistik jihatdan qayta ishlash va umumlashtirish.

**Olingen natijalar va ularning yangiligi** shundan iboratki, unda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammosi O‘zbekiston sharoitida uning o‘ziga xos jihatlari va qirralarini yoritgani holda maxsus tadqiq etildi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, ular asosida bu jarayonni ta’minlovchi pedagogik tizim hamda unga kiruvchi topshiriqlar tizimi, ularni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodikasi ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** tadqiqot muammosining mohiyati va uning natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiya, qo‘llanma, maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari, jumladan, tarbiyachi, tasviriy faoliyat bo‘yicha to‘garak rahbarlariga bolalarda tasviriy faoliyat bo‘yicha savodxonlikning dastlabki elementlarini shakllantirish jarayonida qo‘l keladi. Tadqiqot jarayonida paydo bo‘lgan g‘oyalar asosida pedagogika bilim iortlari va pedagogika oliy o‘quv iortlarida tasviriy faoliyat metodikasi bo‘yicha beriladigan ma’ruza mashg‘ulotlarini mazmun jihatidan boyitadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan metodik tavsiyalar maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini yanada takomillashtirishga, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishga, yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi:** tadqiqotning asosiylari, xulosalari Respublikamizning bir qator viloyatlarda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotga tatbiq etildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan qo‘llanma, metodik ishlanmalar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish jarayonini samarali kechishini ta’minalaydi.

**Qo‘llanish sohasi:** tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalardan pedagogika oliy o‘quv iortlari va kollejlarida “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” kursini o‘qitishda, maktabgacha ta’lim muassasalari katta va tayyorlov guruhlarida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

## РЕЗЮМЕ

диссертации Сабировой Доно Таирджоновны на тему «Формирование элементов изобразительной грамотности у детей старшего дошкольного возраста» на соискание ученой степени кандидата педагогических наук по специальности 13.00.01 – Теория и история педагогики.

**Ключевые слова:** дети старшего дошкольного возраста, система, непрерывность, содержание, методика, элементы изобразительной грамотности, формирование, изобразительная деятельность.

**Объект исследования:** процесс формирования элементов изобразительной грамотности у детей старших и подготовительных групп детских дошкольных учреждений.

**Цель работы:** разработать педагогическую систему формирования элементов изобразительной грамотности у воспитанников старшей и подготовительной группы.

**Методы исследования:** теоретический анализ, индивидуальные и групповые устные и письменные беседы, анкетирование, педагогический эксперимент, инновационные и интерактивные методы, математико-статистический анализ и обобщение.

**Полученные результаты и их новизна:** проблема формирование элементов изобразительной грамотности у детей старшего дошкольного возраста исследовано специально исходя из своеобразия и раскрывая особенности Узбекистана. Разработаны теоретические и практические основы, педагогической системы и её компоненты - система задач, разработана научно обоснованная методика формирования элементов изобразительной грамотности у детей старшего дошкольного возраста.

**Практическая значимость:** суть исследования и на основе его разработанная педагогическая система, методические рекомендации и пособия помогут педагогам и руководителям кружка по изобразительной деятельности в формировании у детей элементов изобразительной грамотности. Излагаемые в диссертационной работе идеи могут быть использованы в процессе преподавания методики изобразительной деятельности в педагогических Вузах и колледжах. Разработанные методические рекомендации способствует помогут организованию и повышению эффективности занятий изобразительной деятельности.

**Степень внедрения и экономическая эффективность:** основные идеи и выводы исследования внедрены на практику в процессе проведения опытно-экспериментальных работ в некоторых областях Республики. Также, пособие и методические разработки, разработанные на основе результатов исследования обеспечивают эффективность процесса формирования элементов изобразительной грамотности у детей старшего дошкольного возраста.

**Область применения:** выводы и основные идеи диссертации могут быть использованы на факультетах дошкольного образования Вузов, профессиональных колледжей в процессе преподавания «Педагогики дошкольного возраста», при организации занятий, входящих в цикл изобразительной деятельности в детских дошкольных учреждениях.

## R E Z U M E

Of the dissertation of Sabirova Dono Tairdjonovna on a theme "Formation of elements of graphic literacy at children of the senior preschool age" on competition of a scientific degree of the candidate of pedagogical sciences on a specialty 13.00.01 - the Theory and history of pedagogics.

**Keywords:** children of the senior preschool age, system, continuity, the maintenance, a technique, elements of graphic literacy, formation, graphic activity.

**Object of research:** formation process of elements of graphic literacy at children of the senior and preparatory groups of children's preschool institutions.

**The purpose of work:** to develop pedagogical system to the doctrine of elements of graphic literacy of senior and preparatory groups pupils.

**Methods of research:** the theoretical analysis, individual, group oral and written conversations, questioning, experiment, innovative and interactive methods, the mathematic - statistical analysis.

**Novelty of research:** the problem formation of elements of graphic literacy at children of the senior preschool age is first developed in a scientific way by proceeding and opening features of Uzbekistan. The theoretical and practical basis, pedagogical system and system of problems tasks included into it is developed; scientifically proved technique of elements formation of graphic literacy at children of the senior preschool age is developed.

**Network of introduction and economic efficiency:** the point of research and pedagogical system developed on its basis, methodical recommendations and workbooks' will help teachers and chiefs of graphic activity courses in formation of graphic literacy elements at children.

**The practical importance:** an essence research and on the basis of it's the developed pedagogical system, methodical recommendations and the grant will help teachers and heads of a circle on graphic activity in formation at children of elements of graphic activity. Ideas stated in dissertational work is possible to use in teaching lessons of graphic activity in pedagogical High schools and colleges. Proceeding from conclusions the developed methodical recommendations will help to organize and increase the efficiency of lessons of graphic activity.

**Scope:** conclusions and the basic ideas of the dissertation can be used at faculties of preschool education of High schools, professional colleges whey teaching «Pedagogics of preschool age», at the organization of lessons heat are included into the in that are included into the group of graphic activity in children's preschool institutions.